

**MARKAZIY OSIYOLIK ALLOMALARNING IJTIMOIY  
MUNOSABATLARGA DOIR FALSAFIY TA'LIMOTLARI.**

**PHILOSOPHICAL TEACHINGS OF CENTRAL ASIAN ALLOMAS ON  
SOCIAL RELATIONS.**

**ФИЛОСОФСКИЕ УЧЕНИЯ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ УЧЕНЫХ О  
СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.**

*Andijon davlat pedagogika instituti  
Boshlang'Ich ta'lism kafedrasi o'qituvchisi  
Matkarimov Joxongir Solaydinovich  
Kechki bo'lism boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabalari:  
Rahimova Mahliyoxon, Toshnazarova Musharrafxon*

**Annotatsiya:** Darhaqiqat, ilmnning kishilik jamiyatining, ayniqsa, uning uzviy qismi bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida va rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Agarda ilm, bilim va ma'rifat kabi xususiyatlari bo'lmaganda insoniyatning sivilizatsiyalari ham bo'lmashdi. Abu Ali ibn Sino ham mazkur mavzuga oid diqqatga sazovor fikrlarni yozib qoldirgan. Abu Ali ibn Sino o'z fikrlarida bu masalaga o'ziga xos tarzda, faylasufona yondoshadi. Bu bilan u o'zini nafaqat mashhur tabib bo'lganligini, balki buyuk faylasuf ekanligini namoyon etadi. Allomaning fikricha, ilm o'z-o'zidan birdaniga paydo bo'lmaydi<sup>1</sup>. Ilmning vujudga kelishi uchun bir necha bosqichlardan o'tishi kerak.

**Abstract:** In fact, the role and significance of Science in the formation and development of a personality society, especially social relations, which are its integral part, is incomparable. Without such characteristics as science, knowledge, and enlightenment, there would not have been human civilizations. Abu Ali ibn Sina also recorded noteworthy points on the subject. Abu Ali ibn Sina, in his thoughts, approaches this issue in his own way, philosophically. With this, he manifests himself not only as a famous healer, but also as a great philosopher. Alloma believes that science does not appear on its own at once . In order for science to occur, it must go through several stages.

**Аннотация:** Действительно, роль и значение науки в формировании и развитии человеческого общества, особенно тех общественных отношений, которые являются его неотъемлемой частью, неоценимы. Не было бы и человеческих цивилизаций, если бы не такие черты, как наука, знания и

<sup>1</sup>ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 2, Issue 4, 2022. -P.1345-1354.

просвещение. Абу Али ибн Сина также оставил заметные замечания по этому вопросу. Абу Али ибн Сина в своих мыслях подходит к этому вопросу по-своему, философски. Этим он показывает, что он не только был известным целителем, но и был великим философом. Ученый считает, что наука не возникает сама по себе сразу . Чтобы наука возникла, она должна пройти несколько этапов.

**Kalit so‘zlar:** Insoniyatning sivilizatsiyas, Hukmron qonunlari, munosabat subektlari, hokimiyat, ilm fan taraqiyotlari.

**Keywords:** Human civilization, ruling laws of mankind, subjects of attitude, authority, branches of science.

**Ключевые слова:** Цивилизация человечества, господствующие законы, субъекты отношений, власть, достижения науки.

Darhaqiqat, ilmning kishilik jamiyatining, ayniqsa, uning uzviy qismi bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida va rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Agarda ilm, bilim va ma’rifat kabi xususiyatlari bo‘limganda insoniyatning sivilizatsiyalari ham bo‘lmashdi. Abu Ali ibn Sino ham mazkur mavzuga oid diqqatga sazovor fikrlarni yozib qoldirgan. Abu Ali ibn Sino o‘z fikrlarida bu masalaga o‘ziga xos tarzda, faylasufona yondoshadi. Bu bilan u o‘zini nafaqat mashhur tabib bo‘lganligini, balki buyuk faylasuf ekanligini namoyon etadi. Allomaning fikricha, ilm o‘z-o‘zidan birdaniga paydo bo‘lmaydi<sup>2</sup>. Ilmning vujudga kelishi uchun bir necha bosqichlardan o‘tishi kerak.

Abu Ali ibn Sino ilmga erishishning quyidagi bosqichlari mavjudligini ko‘rsatib o‘tgan: «1) sezgi yordami blan erishish; 2) tasavvur bilan erishish — bu fikri Aristotelning fikriga tug‘ri keladi; 3) aql bilan baholash qobiliyati — bu fikr Ibn Sinoning o‘ziga tegishlidir; 4) universaliya deb ataluchi umumiy tushunchalarning hosil kilinishi»<sup>3</sup>. Allomaning bu qarashidan ilmning o‘zi hamda unga erishish ko‘p bosqichli, murakkab jarayon ekanligi ayon bo‘lmoqda.

Ma’lumki, ijtimoiy munosabatlarning barcha jabxalari to‘xtovsiz o‘zgarishda va harakatdadir. Ushbu o‘zgarishlar va harakatlarning asosiy manbaasi va sababchisi esa insonlardir. Ijtimoiy munosabatlarning sub’ekti bo‘lgan insonlarning ongli faoliyatları – jamiyatdagi shart-sharoitlarni va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolining darajasini belgilab beradi.

Biroq, bu jarayonlar o‘z-o‘zidan sodir bo‘lib qolmaydi. Chunki «Yangilanayotgan va o‘zgarayotgan hamma narsa-hodisalarining qandaydir sababi bo‘lishi kerak»<sup>4</sup>. Shunday, hech bir o‘zgarish besabab, o‘z-o‘zicha sodir bo‘lmaydi.

<sup>2</sup>ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИНИНГ КОМИЛ ИНСОН ТАРБИЯСИ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 2, Issue 4, 2022. -P.1345-1354.

<sup>3</sup> Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: Фанлар Академияси, 1954. XL.

<sup>4</sup> Ибн Сина (Авиценна). - Москва: Наука, 1980. - С. 171.

Yakka olingen inson hayotidagi hodisalar ham yoki jamiyatda kechayotgan jarayonlar muayyan sabablar ta'sirida yuz beradi. Ibn Sino aytganidek, «Inson qalbi ikki ko'rinishga ega: biri yuqoriga, o'zining asl o'rniga qarab intilsa, boshqasi unga teskari tomon intiladi». Ushbu xulosaning mazmuni shundaki, inson qalbida ikki kuch mujassamlashagan: biri, yaratuvchilik, bunyodkorlik, ulug'vorlik, komillik kabi yuksak axloqiy fazilatlarga yo'naltirsa, boshqasi buzg'unchilik, vayronkorlik, tubanlik, razillik kabi noaxloqiy illatlarga yetaklaydi<sup>5</sup>.

Garchand, insonga ilm, bilim berilgan bo'lsada, u hamma vaqt ham aql-tafakkur bilan ish ko'ravermaydi, u gohida qalbi, ko'ngli buyurgan ishlarni ham qilaveradi. Shunda, inson qalbida yovuzlik ustuvor bo'lsa, uning xatti-harakati yomonlik sari yetaklaydi. Va natijada, biz yuqorida aytib o'tganimizdek, ijtimoiy munosabatlarni izdan chiqaruvchi, jamiyat barqarorligiga raxna soluvchi noxush holatlarni vujudga keltiruvchi sabablarga aylanadi. Ming afsuslarki, hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyotiga g'ov bo'lib, uning yuksalishiga to'siq bo'layotgan salbiy holatlar ko'paymoqda. Oilaviy ajrimlarning soni oshayotganligidan tashqari odamlar orasida mehr-oqibatni yo'qolib borayotganligi, ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan jinoyatlarni sodir etilayotganligi, ba'zilarning o'zligini yo'qotib, begona madaniyatlar ta'siriga berilayotganligi, fahsh, zo'ravonlik, shavqatsizlik va boshqa ko'ngilsiz hodisalarning avj olayotganligi shular jumlasidandir. Biroq, bu kabi yomonliklarga qarshi kurashni hamda yaxshiliklarni qaror toptirishni yakka holda ruyobga chiqarib bo'lmaydi. Buning uchun jamiyat doirasida keng miqyosdagi tadbirlarni amalga oshirish zarurdir.

Avval ham, hozir ham, insonlar hayotida yaxshilik va yomonlik muhim rol o'ynab kelgan. Nafaqat, yakka olingen inson turmush tarzida, balki, ijtimoiy munosabatlar faoliyatida ham yaxshilik va yomonlik doimo mavjud bo'lib kelgan. Dialektik mohiyatiga ko'ra yaxshilik va yomonlik tushunchalari mazmunan qarama-qarshi bo'lsada, shu bilan birga bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash azal-azaldan, minglab yillardan buyon davom etib kelmoqda. Bu kurashda mutloq g'olib ham yo'q. G'alaba qisman bo'lishi mumkin. Lekin, ana shu yomonlik ustidan yaxshilikning qisman g'alabasiga ham osonlik bilan erishilmaydi. Yomonlik bilan kurashda yaxshilik ustun kelishi uchun «Yaxshilik odamlar uchun, umummiqyosda qilingan, hammaga maqbul bo'lgan nizomga va odat tusiga kirgan hamda o'zaro munosabatlarida amal qilishi shart bo'lgan qoidaga aylanishi kerak»<sup>6</sup>. Shundagina biz yaxshilikni umumjamiyat miqyosida ustuvor bo'lishini ta'minlay olishimiz mumkin.

<sup>5</sup> Салимов Б.Л. Ижтимоий муносабатларнинг коммуникация ва транспорт тизими билан детерминистик боғлиқлигининг гносеологик таҳлили. Фалсафа фанлари доктори диссертацияси. Ўзбекистон Миллий университети. Тошкент. 2022, 224 б.

<sup>6</sup> Ибн Сина (Авиценна). - Москва: Наука, 1980. - С. 172.

Biz yuqorida fikr yuritgan yaxshilik, ezgulik singari tamoyillardan ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda foydalanish doimo maqsadga muvofiq bo‘lib kelgan. Chunki bu kabi qadriyatlar insonlarning ma’naviy dunyosini shakllantiruvchi va ularni komillik sari yo‘naltiruvchi muhim omillardir<sup>7</sup>. O‘z navbatida, shu omillarga asoslanib qurilgan ijtimoiy munosabatlar ham bardavom bo‘ladi. Ayniqsa, ijtimoiy munosabatlarning amal qilinishida muhim ta’sirga ega bo‘lgan qonunlarni yaratilishida bu jihatni e’tiborga olinishi hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. Abu Ali ibn Sino ta’biri bilan aytganda «...Hukmron qonunlar majmuasini tuzayotganida, xalqlarning ma’naviy xususiyatlarini va haqqoniyat sari rag‘batlantiruchi qadimiy an’analarini hisobga olishi kerak. Chunki haqqoniyat – insonga xos odatlarning eng guzalidir»<sup>8</sup>. Demak, ijtimoiy munosabatlarning amal qilinishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qonunlar xalqning asriy qadriyatları hamda orzu-umidlari va istaklari asosida yaratilishi kerak. Shuningdek, qonunlarda adolat, haqiqat, ya’ni haqqoniyat g‘oyalari bilan sug‘orilishi shart. Ushbu jihat qonunlarning xalqchil bo‘lishini asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Negaki, adolat va haqiqat g‘oyalari azal-azaldan oddiy xalq uchun hayot-mamot masalasi bo‘lib kelgan. Adolat va haqiqat ko‘magida yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi azaliy kurashda yaxshilikni tantana qilinishi madh etilgan<sup>9</sup>.

Aksariyat allomalar qarashlarida va falsafiy ta’limotlarda jamiyatda yaxshilik va yomonlik o‘rtasida kechadigan kurashda yomonlikka qarshi yaxshilik bilan javob qaytarish uqtirilgan. Biroq, bu qoida hamma vaqt ham kutilgan ijobiy natijani beravermagan. Bu jihat o‘tgan tarixiy tajribada bir necha marotoba o‘z isbotini topgan. Shu bois, yomonlikka qarshi yomonlik bilan kurashish tarafdlari avval ham bo‘lgan, hozir ham bor. Xususan, Sharq dunyosining buyuk ijodkori Abulqosim Firdavsiyning quyidagi fikrlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi:

Yomonlik-la kesay yomonlar qo‘lin,  
Ruhimga yor etay yaxshilik yo‘lin<sup>10</sup>.

Ushbu o‘rinda ba’zilar e’tiroz bildirishi mumkinki, yomonlarlarga, ularning yomonliklariga qarshi yomonlik bilan kurashsak, unda yomonlardan qanday farqimiz qoladi. Bizlar ham yomonlik qilsak, yomonlar bilan bir xil bo‘lib qolamizku, - degan ma’noda. To‘g‘ri, ezgulik va yaxshi amallar yuksak insoniy fazilatlar hisoblanadi. Shunday ekan, ularga bo‘lgan munosabatning ham turlicha bo‘lishi tabiiy xoldir. Ijtimoiy munosabatlarning shakllanishida va takomillashuvida yuqoridagi omillarning ta’siri katta.

<sup>7</sup> Expression of Dialectic Categories in the Individual’s Social Life // openaccessjournals. eu. International Journal of InnovativeAnalyses and Emerging Technology. Volume: 1, Issue 4, 2021. -P.16-18.

<sup>8</sup> Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: Фанлар Академияси, 1954. XXXV.

<sup>9</sup> Салимов Б.Л. Философская роль диалектических категорий в жизни человека // Историческая психология и социология истории (historical psychology & sociology). – М., 2020. Т. 13. -№1. -С. 111-119.

<sup>10</sup> Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. – Тошкент: Фоур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б. 27.

Insonlar ijtimoiy munosabatlarning sub'ektlari hisoblanadi. Insonlar esa xilmalixil bo'ladi. Shu sababdan, ularga bo'lgan munosabatda biz yuqorida sanab o'tgan xususiyatlarini inobatga olish zarur. Shunda ijtimoiy munosabatlar doirasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarga barham berilib, jamiyatning har bir a'zosini hokimiyat ko'rsatmalarini to'g'ri qabul qilish va unga to'liq amal qilish darajasi ancha yuqori bo'lishi ta'minlanadi. Hozirgi zamonda yuksak taraqqiyotga erishgan davlatlar va shu maqsad yo'lida intilayotgan, rivojlanayotgan mamlakatlar ushbu muhim tamoyilni o'zлari uchun dastur-ul-amal qilib olishgan. Bunday yondashuv bugun yoki kecha paydo bo'lib qolgan emas. Hattoki, bundan bir necha asrlar muqaddam yashab o'tgan hukmdorlar ham shu tarzda mamlakatni idora etganlar.

Har tabaqa ahli nimaga moyil,  
Ularni ajratib o'tdi ellik yil.  
Shunday tabaqalab xalqini bo'ldi,  
Maqsad – har kim yo'lin belgilash bo'ldi<sup>11</sup>.

Ushbu misralardan ko'rinish turibdiki, millatlar va xalqlarning peshvolari tomonidan aholini turli tabaqa va toifalarga bo'linishini hamda ularning har birining o'z qiziqishlari, manfaatlari mavjudligini va shular asosida har kimning maqsad-muddaolari shakllanishini anglab yetishgan. Va jamiyatdagi ahl-fuqarolarning manfaatlarini ko'zlagan holda, yurgizgan siyosatlarida, shu jihatlarni hisobga olishgan.

### **Adabiyotlar**

1. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Fanlar Akademiyasi, 1954. XL.
2. Ibn Sina (Avitsenna). - Moskva: Nauka, 1980. - S. 171.
3. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – B. 27.
4. Salimov B.L. Ijtimoiy munosabatlarning kommunikatsiya va transport tizimi bilan deterministik bog'liqligining gnoseologik tahlili. Falsafa fanlari doktori dissertasiysi. O'zbekiston Milliy universiteti. Toshkent. 2022, 224 b.
5. Salimov Baxriddin Lutfullaevich. The philosophical role of dialectical categories in human life. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume: 1, lssue 6, 2021. -R.406-410.
6. Matkarimov, J. S. (2024). PREZI SAYTIDA TAQDIMOT TAYYORLASHNING DASTLABKI TUSHUNCHALARIGA OID. *INTERNATIONAL SCIENCES, EDUCATION AND NEW LEARNING TECHNOLOGIES*, 1(12), 42-46.
7. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY KOMPYUTER DASTURLARINI QO 'LLASH.
8. Matkarimov, J. S. (2024). TA'LIM MASHG'ULOTLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DASTURLARINI QO 'LLASH.

<sup>11</sup> Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. – Тошкент: Фоғур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б., 28-29.